BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Ernazarova Laylo Abdusaitovna
SamDPI o‘qituvchisi
FarDU mustaqil izlanuvchisi
Boqiyeva Sitora Normurot qizi
SamDPI 5-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, matn ustida ishlash ko‘nikmalarining to‘rt bosqichli tasnifi, o‘quvchilarning tanqidiy va tahliliy tafakkurini o‘stiruvchi zamonaviy interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar hamda lug‘at ustida ishlashning samarali usullari chuqur tahlil qilingan. Tajriba-sinov natijalari asosida o‘quvchilarning matnni tushunish va savol tuzish qobiliyatlarini oshirishga doir amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: matn bilan ishlash ko‘nikmasi, o‘qish savodxonligi, ongli o‘qish, matn tahlili, tanlab o‘qish, reja tuzish, lug‘at ustida ishlash, interfaol metodlar, boshlang‘ich ta’lim.

Аннотация. В данной статье освещены теоретические и практические основы развития навыков работы с текстом у учащихся на уроках родного языка и читательской грамотности в начальных классах. Также глубоко проанализированы четырехэтапная классификация навыков работы с текстом, современные интерактивные методы, развивающие критическое и аналитическое мышление учащихся, педагогические технологии, а также эффективные приемы работы со словарем. На основе результатов опытно-экспериментальной работы даны практические рекомендации по

повышению способностей учащихся к пониманию текста и составлению вопросов. **Ключевые слова:** навык работы с текстом, читательская грамотность, осознанное чтение, анализ текста, выборочное чтение, составление плана, работа со словарем, интерактивные методы, начальное образование.

Abstract: This article highlights the theoretical and practical foundations of developing students' text comprehension skills during native language and reading literacy lessons in primary grades. It also provides an in-depth analysis of a four-stage classification of text-processing skills, modern interactive methods that foster students' critical and analytical thinking, pedagogical technologies, and effective methods of vocabulary work. Based on experimental results, practical recommendations are offered to enhance students' text comprehension and questioning abilities.

Keywords: text comprehension skill, reading literacy, conscious reading, text analysis, selective reading, outline creation, vocabulary work, interactive methods, primary education.

Bugungi jadal rivojlanib borayotga ilm makonida maktab ta’limining sifati va samaradorligi birinchi navbatda o‘quvchining yozma axborotni qabul qilish, uni tahlil qilish hamda amalda qo‘llay olish darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy ta’lim paradigmalarida o‘quvchining matnni shunchaki mexanik ravishda ravon o‘qishi uning yetarli savodxonlik darajasiga ega ekanini anglatmaydi. O‘qilganni chuqur anglab yetish, matn tubiga yashiringan asosiy g‘oyani ajratib olish va olingan axborotni kundalik hayotdagi yangi vaziyatlarga muvaffaqiyatli tatbiq eta bilish chinakam funksional savodxonlikning asosiy mezonidir.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro miqyosdagi nufuzli PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) baholash dasturida ilk bor ishtirok etgach, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniq tahliliy ma’lumotlar yuzaga chiqdi. Xalqaro shkala

markazi 500 ballni tashkil etgani holda, o‘quvchilarimizning o‘rtacha ko‘rsatkichi biroz pastroq shakllangani ta’lim tizimida jiddiy ilmiy-metodik o‘zgarishlar qilish zaruratini ko‘rsatdi. Bu raqam ortida yotgan asosiy muammo shundaki, o‘quvchilar harflarni tanib, matnni ovoz chiqarib o‘qishadi, biroq uning tagmatnini, ya’ni ichki ma’nosini yetarli darajada tushunib yetishmaydi.

Mamlakatimiz umumta’lim maktablarida ilgari alohida o‘qitib kelingan «Ona tili» va «O‘qish» fanlarining o‘zaro birlashtirilib, yagona «Ona tili va o‘qish savodxonligi» integratsiyalashgan fani sifatida o‘qitila boshlangani bu muammoning eng to‘g‘ri yechimlaridan biri bo‘ldi. Mazkur fan nomining o‘zgarishi shunchaki mexanik jarayon emas, balki butun boshli lingvodidaktik jarayonning markaziga aynan matn tushunchasini olib chiqdi. Uzluksiz ta’limning keyingi bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarining bosh maqsadi — mukammal o‘qish malakalarini shakllantirish va badiiy yoxud ilmiy-ommabop asar matni ustida tizimli ishlashdan iborat. Demak, boshlang‘ich ta’limda matn oddiy o‘rganish vositasi emas, balki bilishning asosiy obyektidir.

Matn bilan ishlash ko‘nikmasi yakka va sodda xususiyatga ega emas. U o‘z ichiga bir qator o‘zaro chambarchas bog‘langan intellektual va amaliy malakalarni olib, ularni shartli ravishda to‘rt yirik guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

Texnik ko‘nikmalar. Bunda o‘quvchining to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qiy olishi, shuningdek, ichda o‘qish texnikasini egallashi hamda so‘zlarni yaxlit holda tanib olish qobiliyatlari nazarda tutiladi.

Tushunish ko‘nikmalari. Matnning umumiy mazmun-mohiyatini to‘la anglash, matn tarkibidagi notanish, eskirgan yoki o‘zlashtirilmagan so‘zlarning ma’nosini kontekst yordamida aniqlash hamda voqealar rivojining mantiqiy ketma-ketligini tiklay olish malakalari kiradi.

Tahliliy ko‘nikmalar. Matndagi asosiy fikrni ikkinchi darajali tafsilotlardan farqlagan holda ajratish, matnni mantiqiy qismlarga bo‘lib, ularga mos sarlavha

qo‘yish, batafsil reja tuzish, asar qahramonlarining xatti-harakatlariga xolis baho berish hamda hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini ochib berish.

Ijodiy ko‘nikmalar. O‘qilgan matn mazmunini mantiqan davom ettirish, hikoya qilish nuqtayi nazarini (shaxsni) o‘zgartirib bayon etish, muallif uslubiga tayangan holda o‘z kichik matnini yaratish hamda mazmunli savollar tizimini tuza olish.

Ushbu guruhlar o‘zaro qat’iy ierarxik bog‘liqlikka ega. Jumladan, texnik ko‘nikmalar qolgan barcha bosqichlar uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. O‘qish texnikasini yetarli darajada o‘zlashtirmagan o‘quvchining butun aqliy salohiyati va diqqati so‘zlardagi harflar hamda bo‘g‘inlarni bir-biriga ulab o‘qishga sarflanib ketadi, natijada matnning mazmuni e’tibordan chetda qoladi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, texnik ko‘nikma ta’limning oxirgi maqsadi emas. Ayniqsa, 3–4-sinflarga kelib o‘quv jarayonining og‘irlik markazi asta-sekin texnikadan tahliliy hamda ijodiy ko‘nikmalarga ko‘chishi lozim. Afsuski, amaliyotda bu jarayon ko‘pincha bir qolipda qolib ketish holatlari kuzatiladi. O‘quvchilarni matn yuzasidan ongli ravishda savol berishga o‘rgatish ishlari 2-sinfdan boshlanishi maqsadga muvofiq. Metodika fanida haqli ravishda ta’kidlanganidek, to‘g‘ri va mantiqiy tuzilgan savolning o‘zidayoq javobning yarmi tayyor turadi. Pedagog dars davomida dastlab o‘quvchilarga savollarning turlarini aniq ko‘rsatib berishi kerak.

«Kim?», «Nima?», «Qayerda?» kabi reproduktiv turdagi savollar asosan matndan tayyor faktik javobni topishni talab qiladi.

«Nega?», «Qanday qilib?», «Nima uchun?» kabi muammoli va mantiqiy savollar esa o‘quvchidan chuqur o‘ylashni, tahlil qilishni va shaxsiy xulosa chiqarishni taqozo etadi.

Bu borada o‘quvchilarni juftlikda ishlash usuliga jalb etish yaxshi samara beradi. Bunda o‘quvchilar bir-biriga navbatma-navbat savollar berishadi. Dastlabki mashg‘ulotlarda bolalar faqatgina birinchi turdagi oddiy savollar bilan

cheklanishadi, biroq 4–5 ta shunday maqsadli darslardan so‘ng ularning nutqida ikkinchi turdagi mantiqiy savollar ham faol qo‘llanila boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, matn ustida ishlash jarayonida zamonaviy interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini keskin oshiradi.

Klaster (tarmoqlash) texnologiyasi. Matnni o‘qib tahlil qilgandan so‘ng asar qahramonining xarakterini, uning fazilatlarini umumlashtirish va tizimlashtirishda qo‘l keladi.

«Arra» metodi. Sinf kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh matnning alohida bo‘laklarini mustaqil o‘rganib, so‘ngra guruhdagi bilimlarini boshqalarga tushuntirib berish orqali butun matn haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi.

«Aqliy hujum». Matndagi biron-bir murakkab muammoli vaziyat yuzasidan o‘quvchilarning turli xil taxminiy javoblarini yig‘ib, ularning har birini bevosita matndagi dalillar asosida tekshirib ko‘rishga imkon yaratadi. Shuningdek, didaktik o‘yinlarning qimmati faqatgina o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilangina cheklanib qolmaydi. O‘yin muhitida bola xato qilishdan qo‘rqmaydi, bu esa uning erkin fikrlashi va nutqiy faolligini kuchaytiradi. Misol uchun, «Gaplarni tartibga sol» o‘yinida matn gaplari o‘rnini almashtirib (aralashtirib) beriladi va o‘quvchilar ularni mantiqiy ketma-ketlikda qayta joylashtirib chiqishlari talab etiladi.

Lug‘at ustida ishlash boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining ajralmas va o‘ta muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda bu jarayonning o‘rni beqiyos. Uning bosh maqsadlari sirasiga o‘quvchining faol lug‘at zaxirasini kengaytirish bilan birga, uning diqqatini so‘zning semantik mazmuniga qaratish va boshqa so‘zlar bilan o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlarini sodda tarzda anglatish kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z ma’nosini tushuntirishning quyidagi samarali usullari qo‘llaniladi:

Matn (kontekst) muhiti asosida tushuntirish — o‘quvchiga notanish so‘zning ma’nosini u qatnashgan gapdagi boshqa so‘zlar orqali topishga yordam berish;

O‘quv lug‘atlari va darslik oxiridagi izohli ro‘yxatdan foydalanish — bolalarda mustaqil ravishda lug‘at kitoblari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;

Ma’nodosh (sinonim) so‘zlar orqali ochib berish — o‘quvchiga tanish bo‘lgan so‘zga yaqin ma’noli so‘zni solishtirish;

Qarama-qarshi ma’noli (antonim) so‘zlar bilan taqqoslash — so‘zning ma’nosini uning zid jufti orqali tezroq eslab qolishini ta’minlash;

Sodda ta’riflash va boshqacha ifodalash usuli — murakkab tushunchani bolalar tushunadigan tilda izohlash;

Predmetning asosiy belgi va xususiyatlarini ko‘rsatish — ko‘rgazmalilikka (rasm, buyum) tayanib tushuntirish;

Hayotiy misollar keltirish — kichik yoshdagi o‘quvchining shaxsiy tajribasi va kundalik turmushidan misollar olish.

Badiiy matnlardagi ko‘chma ma’noli so‘zlar va tasviriy vositalarni matn to‘liq o‘qib bo‘lingandan keyingina izohlash o‘quvchining estetik idrokini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘qish jarayonining o‘zida notanish yoki ko‘chma ma’noli so‘zlarga uzoq to‘xtalish bolaning diqqatini asosiy voqealar chizig‘idan chalg‘itadi va asarning emotsional ta’sirini pasaytiradi. Asar mutolaasi to‘la yakunlangachgina obrazli so‘zlar ustida ishlash o‘quvchida muallif tilining go‘zalligini his qilish, matnning tagzamirini ilg‘ash hamda badiiy zavq olish tuyg‘usini rivojlantiradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish tasodifiy topshiriqlar majmui emas, balki bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan chuqur o‘ylangan bosqichli va tizimli pedagogik jarayondir. Har bir o‘qish darsida matn ustida ishlash bosqichlari izchil bajarilishi, o‘quvchilarni ongli ravishda savol

tuzishga o‘rgatish, reja tuzish malakasini bosqichma-bosqich yengildan murakkabga qarab olib borish hamda lug‘at ustida ishlashni matnning asosiy kalit so‘zlari asosida tashkil etish talab etiladi.

Mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlash uchun o‘qituvchidan har bir darsda ijodiy yondashuv, zamonaviy metodlar va kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini qat’iy hisobga olish talab etiladi. Shundagina o‘quvchining matnga bo‘lgan munosabati passiv axborot tinglovchidan ongli, qiziquvchan va faol kichik tahlilchiga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning kelgusi ta’lim bosqichlarida funksional savodxonligini oshirish hamda xalqaro baholash tadqiqotlarida yuqori natijalarni qayd etishining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Abdullayev A.** O‘qish savodxonligi darslarida pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2022. – 168 b.
2. **Abdullayeva D.** Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent, 2020. – 192 b.
3 **Aydarova U.B., Azizova N.K.** O‘qish savodxonligi: 3-sinf, 3-qism. – Toshkent, 2023. – 7 b.
4. **Aydarova U.B., Azizova N.K.** O‘qish savodxonligi: 4-sinf, 1-qism. – Toshkent, 2023. – 4 b.
5 **Gadayev O.Y.** Ona tili: O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: "SamDCHTI" nashriyoti, 2024. – 181 b.
6. **Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh.** Ona tili: Darslik. – Toshkent: Moliya-iqtisod, 2017. – 300 b.
7. **Hasanov T., Tursunova T.** Ta’limda interfaol metodlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 184 b.
8. **Ikromova R., Muhamedova D., Hamrayev M.** O‘zbek tilidan mashqlar to‘plami. – Toshkent: TDPU, 2009. – 240 b.

9. **Jo‘raeva N.** Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2023. – 176 b.
10. **Matchonov S. va boshq.** Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Bayoz, 2022. – 701 b.
11. **Matjon S.** Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2010. – 210 b.
12. **Shodiyev F.** Ona tili: Darslik. – Samarqand: SamDU nashri, 2025. – 400 b.
13. **Shodiyev F.** Ona tili: O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 405 b.
14. **Xujamkulova N.** Umumta’lim maktablarida xalqaro dasturlar asosida o‘qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish (PIRLS, EGRA xalqaro dasturlari asosida): Monografiya. – Samarqand, 2025.
15. **Ernazarova L., Mirsanova M.** Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi [Elektron resurs]: Elektron darslik. – Samarqand, 2024.